



"COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES"

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

5-SHO'BA TEXNOLOGIYALAR VA BARQAROR RIVOJLANISH

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDAGI BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH- PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

p.f.n., dots. Aliqulov Saloxiddin Turdimuratovich

Jizzax politexnika instituti

Nosirov Jaxongir Normurod o'g'li

Sambxram universiteti

Annotatsiya: professional ta'lismuassasalarida ta'limgazmuni milliy qadriyatlar bilan integrasiyalash texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat.

Kalit so'zlar: professional ta'limgaz, qadriyat, milliy mustaqillik, integrasiyalash, motivasiya, hunarmand, urf-odat, kasbiy faoliyat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni xar tomonlama ko'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 17 noyabrdagi [PF-5242-sonli](#) farmonida "Yoshlarni har tomonlama barkamol qilib, vatanparvarlik va milliy mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashga, shuningdek, o'quvchilarda boy ilmiy, madaniy va ma'naviy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy va axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni yangi pedagogik shakllar va usullar asosida tashkil etish", – deb belgilab berilgan[1].

Biroq, professional ta'limgazmuassasalari va boshqa professional ta'limgazmuassasalari oldida turgan jamiyatning yuqorida bayon qilingan buyurtmasi yetarli darajada amalga oshirilayapti deb bo'lmaydi. Buning asosiy sabablaridan biri bu bo'lajak mutaxassislarining kasbiy, ma'naviy, axloqiy fazilatlarini shakllantirishda milliy qadriyatlarning qaysi turlaridan qanday usulda foydalanish hanuzgacha o'z yechimini topolmaganligidadir[2]. Yoshlarimizda ma'naviy-axloqiy sifatlar albatta mehnat tarbiyasi, kasb-hunar bilan shug'ullanishi, bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etishi, ilm olishga, hunar o'rGANISHGA sarflashlari orqali shakllanadi.

Umumiy o'rta, professional ta'limi tizimi davlat ta'limgaz standartlari vazifalarining 3-qismida «Xalqning boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'limgaz oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning



"COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES"

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

samarali shakllar va usullarini joriy etish» deb ko'rsatilgan. Ammo, hozirgi davrda aynan ana shu qismda ko'rsatilgan vazifalarni bajarish barcha professional ta'lif muassasalarida ham to'liq amalga oshirilmoqda deb bo'lmaydi. Chunki, bo'lg'usi mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda milliy qadriyatlarning qaysi turlaridan, qanday usulda foydalanish hanuzgacha o'z yechimini topa olmayotgan muammolardan bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida «Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu bois, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish o'ta sharafli vazifadir» deb ta'kidlangan. Ushbu vazifa "yosh yigit-qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish"ni amalga oshirishda milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda ta'lif jarayonini tashkil etish ijobjiy samara beradi[3].

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odati va an'analarini, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi», – deb ta'kidlagan. Albatta, ta'lif mazmuniga milliy qadriyatlarni singdirish uchun boy ilmiy-pedagogik potensial mavjud. Buning uchun kuzatishlar va ilg'or tajribalar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, pedagog-o'qituvchilarini tayyorlashda ularning kasbiy, metodik bilim, ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlanishni takomillashtirish yo'llarini tadqiq qilish ham muhimdir.

O.A. Abduquodusov o'z tadqiqotlarida, raqobatbardosh mutaxassis qanday bo'lishi va qaysi me'yordarga javob berishi kerak degan savolga javob berib, raqobatbardosh kichik mutaxassis quyidagi sifatlarga ega bo'lishi kerak deb ko'rsatadi: tanlangan yo'naliш bo'yicha yuqori professional tayyoragarlikka ega bo'lish; o'z professional-ijodiy darajasini mustaqil ravishda doimiy oshirib borish; ijtimoiy faol, ijobjiy shaxsiy sifatlarga ega bo'lish; tadbirkorlik faoliyatini mobil ravishda va hamkorlikda amalga oshirish; o'z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, o'z intellekti va fikrlari asosida xulosalar qilish[4].

Oliy ta'lif tizimida tayanch oliy ma'lumotli o'qituvchi-pedagoglarni amaliy faoliyatga tayyorlashning turli sohalari tadqiq qilingan. Milliy pedagogikamiz tarixidan ma'lumki, kasb-hunar bilim yurtlari tarixi o'tgan asrning 1920 yillarga borib taqaladi. Turkiston o'lkasida vujudga kelgan gimnaziya va seminariyalardagi ta'lif-tarbiya siyosati milliy-ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, o'zbek xalq pedagogikasining durdonalarini



"COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES"

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

o'quv-tarbiya jarayoniga singdirish va ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladigan o'quv-metodik ta'minotni yaratish kabi masalalar hamisha inkor etilganligini ta'kidlash lozim [5-6].

Professional ta'limi tizimida esa asosan pedagog kadrlarni pedagogika kollejlari "Boshlang'ich ta'lim sport va tarbiyaviy ish", "Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ish tashkilotchisi" ixtisosliklari bo'yicha mutaxassislar kasbiy faoliyatga tayyorlanmoqdalar. Mazkur o'quv yurtlarini tugallagan o'qituvchilarning kasbiy mahorati darajalari bilan umumta'lim maktablari texnologiya ta'limi mashg'ulotlari mazmuniga uyg'unlashtirish lozimligini davr o'zgarishlari taqozo etmoqda. Chunki mehnat tarbiyasi shaxsnинг shakllanishida eng muhim omillardan hisoblanadi. Yoshlarimizga boshlang'ich kasb-hunar ta'limi samarali bo'lishini taqozo etadi.

Shu sababli kasb hunar maktablarida mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, kasb-hunar egallashning ilmiy-nazariy, pedagogik asoslarini o'rganishni takomillashtirilgan holda ishlab chiqish va ularni ta'lim tizimiga joriy etish texnologiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ma'lumki, pedagoglar faoliyatini rivojlantirish asosida pedagogika kolleji ta'lim-tarbiya tizimini milliy, moddiy qadriyatning eng qadimiy turlaridan bo'lgan xalq hunarmandchiligi asosida sohalarini yangilash yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni xar tomonlama ko'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 17 noyabrdagi PF-5242-sonli www.lex.uz.
2. Abduquddusov O. Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlashni takomillashtirish //Xalq ta'limi.-Toshkent, 2004.- №1. -B.143-144.
3. Тавбоев С., Алимов Н., Тогаев Х. Активизация познавательной деятельности студентов на лабораторно-практических занятиях.IJAST_2637 международный журнал передовых наук и технологий. Номер ISSN 2207-6360 Индекс WWW. sersc. org\журналов.в PHP\IJAST. 2020 Июнь.
4. АлимовН. The Methodology of Preparation of Students of Vocational Schools and Colleges for Technical Creative Activity.
5. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2): 1470-1485 ISSN: 00333077 Article Received: 16th October, 2020; Article Revised: 30th December, 2020; Article Accepted: 08th January, 2021. www.psychologyandeducation.net
6. Алимов Н., Тогаев Х. Оценка творческих работ, представленных на смотр-конкурс" Научно техническое творчество студентов"(HTTC)Общество и экономика постсоветского пространства 2014Pages 165-170 Citedby 13 Relatedarticles.